

SHAXSNI KAMOLOTGA YETKAZISHNI INSTITUTSIONAL ASOSLARI
VA MEXANIZMLARI**Davlatova Mohichehra Turg'un qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

(Ma'naviyat asoslari)yo'nalishi magistranti

Annotatsiya:Ushbu maqolada mustaqil fikrlovchi shaxs tarbiyasi, shuningdek ,tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda “oila ,mahalla,maktab”hamkorligini o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.Yosh avlodni yaxshi xulqli ,ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish haqida so'z yuritiladi .Yoshlar ma'naviyatida o'zgarishlar ,muammo va yechimlar haqida fikr bildiriladi .

Kalit so'zlar :Shaxs tarbiyasi ,oila,mahalla ,maktab,ma'naviyat ,vatanparvarlik ,tahdid ,ta'lim ,tarbiya,

Abstract:in this article analyzes the role and importance of family -neighborhood -school cooperation in raising an independent -thinking person ,in carrying out educational work .It discusses the formation of a sense of patriotism in a well -mannered young generation.It also discusses changes in youth spirituality ,problems and solutions.

Key words:person upbringing ,family,neighbourhood ,school, spirituality,patriotism,threat,education,upbringing.

KIRISH

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontsepsiyasi, 2016 yil 14 sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va boshqalar yoshlarni istiqlol g'oyalari g'a sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi. Respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"¹gi qonuni bugungi Yangi O'zbekistonda muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqzo etadi.

Islom Karimov ko'rsatib berganidek, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar: birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga; ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga; uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishda; to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga; beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan².

Mazkur Kontsepsiyada taraqqiyotimizning ma'naviy-axloqiy negizi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ekanligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyg'un yo'nalishlari belgilab olindi. Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlarini shakllantiriladi. Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy,

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637-сонли «Таълим тўғрисида»ги Қонуни

² Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларни ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш – бугунги куннинг устувор вазифасидир. // Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. 14 – том. – Т.: "Ўзбекистон", 2006. 101-бет

aqliy, estetik, ekologik, gigityenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Kontsepsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosligini ta'minlaydi.

Kontsepsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998-yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirdi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi syosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martda qabul qilingan "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, 7 diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 30-moddasida "Voyaga yetmagan shaxslarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari shaxsning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, o'quv muassasasigacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar", deb belgilab qo'yilgan. Bu "Oila, o'quv bilim yurti, mahalla hamkorligi" bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontsepsiyasining asosiy maqsadidir.

O'zbekistonda ruy berayotgan o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

Mustaqil fikrlovchi shaxs tarbiyasi uzluksiz bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shu jihatdan e'tibor berilsa tarbiya ishlarining natijasi sifatida o'quvchilar va talabalarning jamiyatimizdagi islohatlardagi ishtirokining faollashuvi kuzatilmoqda, shuning uchun ham ularning tarbiyasiga, shaxs sifatida shakllanishiga ta'limning barcha jabhalarida alohida e'tibor berilmoqda. Ijtimoiy iqtisodiy sohalarning modernizatsiyalashuvi ta'lim taraqqiyoti va shaxsni huquqiy ongi, fuqoralik madaniyati masalalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ushbu jarayonda tarbiyaning milliy qadryatlar imkoniyatlaridan, ma'naviy ma'rifiy, axloqiy, ekologik tadbirlardan samarali foydalanish, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash mazmunini yanada takomillashtirish amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hozirgi davrda siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va ma'rifiy-madaniy islohotlarni boshdan kechirmoqda.

Bunday sharoitda mustaqil fikrlovchi, islohatlarda faol ishtirok etuvchi shaxs madaniyatini shakllantirish tamoyillarning o'zgarishi ham o'quvchilar, talabalarning tarbiyasi va umumiy tayyorgarligiga, ularning ilmiy pedagogik, mutaxassislik fanlarni chuqur o'rganishlari holatiga bog'liqdir. Bu holatda birinchi navbatda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda ma'naviy tarbiya vositalarining ta'sirchanligi ahamiyatlidir. O'quvchilarga ma'naviy ma'rifiy ta'sirni amalga oshirish, ularni modernizatsiyalashayotgan jamiyatda fuqoralik madaniyati shakllangan shaxs sifatida tayyorlash, insoniylik, o'quvchilarning haq-huquqlarini amalga oshirishga asoslangan yangi demokratik qadriyatlarning mazmunini tushintirish zaruriyati bilan ham izohlanadi.

Shaxs huquqiy, fuqoralik ongining yuksalishi, ularning yuksak madaniyati shakllanishi bevosita uzluksiz ta'lim amaliyoti bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari, nazariy jihatlari, tarbiyaviy uslublaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, uning mazmunini ijtimoiy iqtisodiy islohatlar natijalari bilan boyitish ham

muhimahamiyat kasb etadi. Alohida ta'kidlash lozimki mustaqil fikrlovchi shaxs kamolotida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun mazmunini bilish ham muhimdir.

Modernizasiyalashgan ta'lim sohasida shaxs fuqoraviy dunyoqarashini shakllantirish va ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim bo'lagidir. Ushbu jarayon yoshlarni yuksak darajadagi madaniyatga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalash bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham ilmiy, amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Ma'lumki, insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri - bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolotlab berishdan iborat. Bu huquqni amalga oshirish -davlat va jamiyatni demokratlashtirishning eng muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi ham birinchi galda ana shu mezon bilan o'lchanadi"³ - deb ta'kidlaganlar Ushbu metodologik ahamiyatga ega bo'lgan tavsiya ham ishning va kurs ishi mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;
- hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;

³ Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларни ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш – бугунги куннинг устувор вазифасидир. // Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. 14 – том. – Т.: "Ўзбекистон", 2006. 121-бет.

- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi;

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro'li xotin-qizlarni, ota-onalarni jalb qilib, "Yosh onalar va otalar o'quv muassasasi" faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning o'quv muassasasigacha bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, harf tanish, qo'shiq, aytish va raqs tushish, turli o'yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan o'quv muassasasiga tayyorlash sinflari, "Yakshanbalik o'quv maskanlar" ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagilar uchun mo'ljallangan (6-11 yosh) o'quv muassasalarida shaxslarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, uning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z hatti - harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni 18 o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lib, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar sinflari va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z hatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish

bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, Davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash. Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, o'quv muassasasi hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur. O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak. Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobingga balli", "Sog' tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq, hunar oz", "O'g'lim posbonim", «Hayot—ustoz, 2 Yo'ldoshev J. «Zamonaviy o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining shakllanishi» nomzodlik dissertatsiyasi, T., 2002 19 xalq—muallim", "O'zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch — mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag'asida", "Askarlik — yigitlik o'quv muassasasi", "Oila baxti — Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin. Bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin. Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxonalar va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan ta'lim – tarbiyaning mazmuni, metodlari va vositalari bolaning yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi muhim sanaladi. O'qituvchi o'quvchilarning ruhiy xususiyatlarini bilishi, ma'lum yoshdagi o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olishi asosida faoliyat tashkil etishi lozim. Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgariga qarab rivojlanish ro'y beradi. Bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti qaror topib borar ekan, bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi. Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichida bir hil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'sayotgan yosh avlod o'ziga xos xususiyatlarini bilishi juda zarur. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi – tarbiyalanuvchilarning har birining o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud. Bu o'ziga xoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Yosh xususiyatlarni hisobga olish, bola xususiyatiga moslashish emas, balki shu yosh davrida bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish demakdir. Shundagina shaxs rivojlanishiga tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637-сонли «Таълим тўғрисида»ги Қонуни
- 2 Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларни ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш – бугунги куннинг устувор вазифасидир. // Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. 14 – том. – Т.: “Ўзбекистон”, 2006. 101-бет
- 3 Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларни ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш – бугунги куннинг устувор вазифасидир. // Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. 14 – том. – Т.: “Ўзбекистон”, 2006. 121-бет